

JALOLIDDIN RUMIYNING “MUSO VA CHO‘PON” HIKOYASIDA ILOHIY MUHABBAT VA SAKRAL DISKURS TALQINI

Shahnoza Izmurodova

QarDU II kurs tayanch doktoranti

shahnozaizmurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning “Musos va cho‘pon” hikoyasi asosida ilohiy muhabbat, ibodat mohiyati va sakral diskursning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tarzda tahlil qilinadi. Hikoya orqali shariat va qalb muhabbati, tashqi ibodat va ichki samimiyat o‘rtasidagi ziddiyat yoritiladi. Tadqiqot psixologik, gernevntik va zamonaviy ijtimoiy kontekstlarda hikoyani talqin qiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi hikoyani zamonaviy psixologik kontekstda talqin qilishi va sakral diskurs tushunchasini ilmiy asosda ochib berishida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Muso va cho‘pon, Jaloliddin Rumi, tasavvuf, ilohiy muhabbat, sakral diskurs, qalb samimiyati, ibodat, psixologik talqin.

Аннотация: В данной статье на основе истории Джалаладдина Руми «Муса и пастух» проводится научный анализ божественной любви, сущности поклонения и особенностей сакрального дискурса. В рассказе освещается противоречие между шариатом и любовью сердца, внешним обрядом и внутренней искренностью. Исследование включает герменевтический, психологический и современный социальный контексты. Научная новизна статьи заключается в интерпретации произведения в современном психологическом контексте, а также в научном раскрытии понятия сакрального дискурса.

Ключевые слова: Муса и пастух, Джалаладдин Руми, суфизм, божественная любовь, сакральный дискурс, искренность сердца, поклонение, психологическая интерпретация.

Abstract: This article presents a scholarly analysis of Jalaluddin Rumi’s story “Moses and the Shepherd,” focusing on divine love, the essence of worship, and the characteristics of sacred discourse. The story highlights the tension between Sharia law and the love of the heart, external rituals and inner sincerity. The study interprets the narrative through hermeneutic, psychological, and contemporary social perspectives. The scientific novelty of this work lies in its modern psychological interpretation of the story, as well as the systematic elucidation of the concept of sacred discourse.

Keywords: Moses and the Shepherd, Jalaluddin Rumi, Sufism, divine love, sacred discourse, heart’s sincerity, worship, psychological interpretation.

Kirish. Sharq tasavvuf adabiyotida ilohiy muhabbat va ibodat tushunchalari inson ruhiy kamolotini anglashning asosiy vositasi hisoblanadi. Jaloliddin Rumi (1207–1273) asarlarida bu mavzular badiiy obrazlar orqali teran yoritilgan. “Musos va cho‘pon” hikoyasi — Rumiyaning tasavvufiy tafakkurini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib, unda shariat va haqiqat, tashqi ibodat va ichki qalbiy samimiyat o‘rtasidagi munosabatlar ifodalanadi.

Ushbu maqola tadqiqotining maqsadi — “Musos va cho‘pon” hikoyasi asosida tasavvufda ilohiy muhabbatning o‘rni va sakral diskursning xususiyatlarini ilmiy asosda ochib berishdir. Tadqiqotning dolzarbligi esa zamonaviy jamiyatda tashqi shakllarga berilgan ustuvorlik va ichki ruhiy mazmunning e‘tibordan chetda qolayotganligi bilan izohlanadi.

Tasavvuf ta’limotida **ilohiy muhabbat** inson ruhiy kamolotining eng oliy darajasi sifatida talqin qilinadi. Bu muhabbat insonni o‘z nafsidan voz kechishga, ruhiy soflashishga va mutlaq Haqiqat sari intilishga undaydi. Mutasavviflar fikricha, haqiqiy ibodat faqat tashqi shakl bilan emas, balki qalbdagi samimiyat va muhabbat bilan baholanadi.

Asosiy qism. Sharq adabiyotida Musos obrazi tasavvuf falsafasining markaziy ramzlaridan biri hisoblanadi. Rumi Masnaviyda Musos va cho‘pon hikoyasi orqali tashqi shariat va ichki muhabbat o‘rtasidagi munosabatni ochadi.

Fors-tojik adabiyotining eng nufuzli tasavvufiy asarlaridan biri bo‘lgan “Masnaviy Ma’naviy”da Musos alayhissalom obrazining badiiy talqini **tasavvufiy falsafa kontekstida** yoritilgan. Ushbu hikoya orqali **Rumi** diniy matndagi Musos obrazining badiiy va ruhiy qatlamga transformatsiyasini amalga oshiradi. Bu hikoyada Musos yo‘lda bir cho‘ponning ibodatini eshitadi. Cho‘pon Allohga juda sodda va xalqona tarzda murojaat qiladi: “Ey Parvardigor, sochingni tarab qo‘yay, kiyimingni tikib beray, senga sut beray...” kabi so‘zlarni aytadi. Musos payg‘ambar esa bu so‘zlarni **shariat nuqtai nazaridan noto‘g‘ri** deb hisoblab, cho‘ponni tanbeh qiladi. Cho‘pon bundan qattiq xafa bo‘lib, ibodatini to‘xtatadi. Shunda Alloh Musoga vahiy qiladi: “Sen bandamni Mendan ajratding. Men so‘zga emas, qalbgga qarayman.” hazrati Musos ham cho‘lga ravona bo‘lib, cho‘ponni topdilar va unga xushxabarni yetkazdilar. Xohlaganicha Robbiga iltijo qilishi mumkinligini aytdilar (Masnaviy ma’naviy”. II jild, 1720-bayt).

Rumi bu hikoya orqali bir nechta chuqur tasavvufiy g‘oyani ilgari suradi:

1. **Iymonning mohiyati qalbda o‘rnashishi** — Alloh uchun ibodatning shakli emas, **niyat va muhabbat** muhim.
2. **Har bir insonning Yaratguvchi bilan aloqasi o‘ziga xosligi** — bunda cho‘ponning sodda so‘zlari ham Haqqa yetishning bir yo‘li sifatida qabul qilinadi.

3. **Din va tasavvuf o'rtasidagi muvozanat** — bu qarashga ko'ra esa Muso alayhissalom **shariat ramzi**, cho'pon esa **ishq va qalbiy e'tiqod ramzi** sifatida talqin qilinadi.

Rumiy hazratlarining “Masnaviy Ma'naviy” asarlari ta'sirida yozilgan Abdumurod Tilavovning “Masnaviy: 40 rivoyatga 40 sharh” kitobida quyidagi satrlarga duch kelamiz: “... Musulmonlikda Allohni tanish haqidagi savolga farqli ifodalar bilan javob beriladi: Alloh — har nedan ulug‘, uzoqlarda yetib bo‘lmas borliqmi? Yohud yonimizda, yaqinimizdami? Qur’oni Karimda bu har ikki qarashga oid oyatlar bor. Birinchi qarash tanzihiy, ikkinchi qarash tashbihiy qarash deyiladi. Tanzihchi qarashga ko‘ra, Alloh mutaol bir borliqdir. Makondan munazzahdir. U aqlimizga keladigan har nedan boshqadir. Quyidagi oyatlar bu qarashni qo‘llab-quvvatlaydi: “Biror narsa U zotga o‘xshash emasdir” (Sho‘ro, 11); “Va hech kim u zotga teng emasdir” (Ixlos,4).

Tashbihiy qarash esa Allohning bizga yaqin, oshnoligini ilgari suradi. Qof surasining 16-oyatida Alloh insonga: “...shoh(bo‘yin) tomiridan ham yaqin ekani ifoda etiladi. Ko‘ngil odamlari ko‘proq ikkinchi qarashga yaqin bo‘lganlaridir[8, 85]. Bu hikoya Muso obrazining **yangi badiiy talqinini** beradi. Bu yerda Muso faqat tarixiy payg‘ambar emas, balki **shariatni ifodalovchi timsol** sifatida ishlatiladi. Cho‘pon esa **sof qalb, ishq va tasavvufiy e'tiqod** timsolidir. Shu orqali Rumiy Muso obrazini **tasavvufiy-falsafiy dialog** markaziga aylantiradi.

Tasavvufda “ishq” tushunchasi oddiy hissiy kechinmadan farqli ravishda, insonni o‘z “men”idan voz kechishga, nafsni yengishga va mutlaq Haqiqat sari intilishga undovchi ilohiy kuch sifatida izohlanadi. Shu bois mutasavviflar nazarida haqiqiy ibodat — bu tashqi amallar majmui emas, balki qalbning Allohga bo‘lgan cheksiz muhabbatidir. Buyuk mutasavvif shoir Jaloliddin Rumiy o‘z asarlarida aynan shu g‘oyani markaziy o‘ringa qo‘yadi. Uning fikricha, insonning Allohga yetishish yo‘li aql va qoidalar orqali emas, balki muhabbat orqali amalga oshadi. Rumiy ishqni insonni ilohiy haqiqat bilan birlashtiruvchi ko‘prik sifatida talqin qiladi. U shunday deydi: inson qalbi muhabbat orqali poklanadi va asl manbaga — Allohga qaytadi. Tasavvufda ilohiy muhabbat ikki darajada ko‘riladi:

Majoz ishq — dunyoviy muhabbat (insondan insonga)

Haqiqiy ishq — Allohga bo‘lgan muhabbat

Mutasavviflar fikricha, majoz ishq ham aslida insonni haqiqiy ishqqa yetaklovchi vosita bo‘lishi mumkin. Ya’ni inson avval dunyoviy muhabbatni his qiladi, keyin esa bu his uni yanada yuksakroq — ilohiy muhabbat darajasiga olib chiqadi.

Tasavvufiy qarashlarda ibodatning haqiqiy qiymati uning tashqi shaklida emas, balki ichki mazmunida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, ibodatning qanchalik mukammal bajarilgani emas, balki undagi samimiyat va muhabbat darajasi muhim hisoblanadi. Bu g‘oya ko‘plab mutasavviflar tomonidan ilgari surilgan. Jumladan, Alisher

Navoiy asarlarida ham ishq va samimiyat masalasi markaziy o‘rin tutadi. Navoiy nazarida, qalbsiz ibodat — faqat tashqi harakatdan iborat bo‘lib, u insonni haqiqiy kamolotga olib bora olmaydi. Ibodatning eng oliy darajasi bu — muhabbat bilan ibodat qilishdir. Chunki bu holatda inson na mukofot na jazoni o‘ylaydi, balki faqat Allohning o‘zini istaydi.

Sharq adabiyotida muhim tushunchalardan biri — bu sakral diskurs, ya’ni insonning Alloh bilan bo‘lgan ichki muloqoti hisoblanadi. Bu muloqot har doim ham an’anaviy diniy til yoki qoidalarga mos kelavermaydi. Ba’zan u sodda, hatto tashqi tomondan “noto‘g‘ri” ko‘ringan shaklda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Aynan shu jihat Jaloliddin Rumiyning “Musu va cho‘pon” hikoyasida yorqin ifodasini topadi. Cho‘ponning Allohga murojaati oddiy, hatto sodda va “qoidaga to‘g‘ri kelmaydigan” iboralar orqali ifodalanadi. Biroq uning bu so‘zlari qalb samimiyatidan kelib chiqqani sababli ilohiy maqomda qabul qilinadi. Bu esa shuni anglatadiki, tasavvufda muqaddaslik faqat rasmiy ibodat shakllarida emas, balki inson qalbining ichki holatida mujassamdir. Demak, har bir insonning Alloh bilan bo‘lgan aloqasi o‘ziga xos va betakrordir.

Xulosa. Hikoyada Musu obrazi ilohiy qonun va tartib timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. U shariat qoidalarini himoya qiladi va ibodatning to‘g‘ri shaklini talab etadi. Cho‘ponning oddiy va sodda iboralari esa Musu tomonidan noto‘g‘ri deb baholanadi. Cho‘pon obrazi esa sof qalb, samimiy muhabbat va ichki erkinlik timsolidir. U Allohga oddiy, insoniy so‘zlar bilan murojaat qiladi. Tashqi tomondan bu iboralar noo‘rin tuyulsa-da, aslida ular qalbning chuqur muhabbatidan kelib chiqadi.

Hikoyaning asosiy konflikti — shariat va haqiqat, ya’ni tashqi tartib va ichki muhabbat o‘rtasidagi ziddiyatdir. Musoning tanbehi natijasida cho‘pon o‘z ibodatidan voz kechadi. Ammo ilohiy murojaat orqali Musoga haqiqiy haqiqat ochiladi: Alloh uchun ibodatning shakli emas, balki qalbdagi samimiyat muhimdir.

Natijada Musu o‘z xatosini anglaydi va cho‘pondan uzr so‘raydi. Bu jarayon insonning ruhiy o‘sishi va haqiqatni anglash yo‘lini ifodalaydi. Germenevtik yondashuv asosida hikoya ko‘p qatlamli ma’noga ega matn sifatida talqin qilinadi. Zohiriy qatlamda voqea bayon etilsa, botiniy qatlamda insonning Alloh bilan ichki aloqasi ifodalanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, Musu — tashqi nazorat va ijtimoiy me’yorlarni, cho‘pon esa ichki “men” va samimiyatni ifodalaydi. Hikoya inson ruhiyatidagi ushbu ikki kuch o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Zamonaviy jamiyatda insonlar ko‘pincha tashqi mukammallikka intilib, ichki samimiyatni yo‘qotib qo‘ymoqda. Ushbu hikoya esa insonni o‘z ichki ovozi eshitishga, qalb samimiyatini saqlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy/ (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: Baxtiyor Abdushukurov). Yoshlar nashriyot uyi.2018.
2. Muhammad Ali Sabuniy. Anbiyolar qissasi Payg'ambarlar tarixi. Toshkent: "Matbaachi", 2022.
3. Alisher Navoiy/ (Hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil qilib, nashrga tayyorlovchilar: Abdumurod Tilavov, Ibrohimjon Saydullayev). Tarixi anbiyo va hukamo. Toshkent. "Faktor press", 2023
4. Abul Hasan an-Nadviy. Payg'ambarlar tarixi. Toshkent. "Credo print Group" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
5. Sog'uniy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. – T.: Movarounnahr, 1997.
6. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san'at, 1991.
7. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. T: "Toshkent islom universiteti"
8. Abdumurod Tilavov. Masnaviy: 40 rivoyatga 40 sharh. Toshkent."Matbaachi". 2024.